Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 902
IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

MARKAZIY OSIYONING TOSH DAVRI TARIXI TARIXSHUNOSLIGINING O'RGANILISH MUAMMOLARI (Sovet davrida amalga oshirilgan tadqiqotlar) Abduvaliyeva Nozimaxon Abdushukur qizi Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti ORCID: 0009-0005-1233-6905

Nozimaxon Abdushukur qizi Abduvaliyeva*
Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti
✉ nozima@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Markaziy Osiyo tosh davri tarixi tarixshunosligining Sovet davridagi (1920–1991-yillar) rivojlanish bosqichlari hamda ushbu davrda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlari tahlil etiladi. Tadqiqotda sovet arxeologiya maktabining shakllanishi, kompleks arxeologik ekspeditsiyalarning tashkil etilishi, paleolit, mezolit va neolit davri yodgorliklarining o'rganilishi, ularning davrlashtirilishi hamda tarixiy-madaniy talqini tarixshunoslik nuqtai nazaridan baholanadi. Shuningdek, A.P. Okladnikov, V.A. Ranov, P.P. Yefimenko, M.R. Qosimov, O'.Islomov, N.X. Toshkenboyev va boshqa olimlarning ilmiy merosi tahlil qilinib, sovet davri tadqiqotlarining metodologik xususiyatlari, ularning yutuqlari va mafkuraviy cheklovlari ochib beriladi. Tadqiqot natijalari Sovet davri arxeologiyasi Markaziy Osiyo tosh davri tarixini o'rganishda fundamental manbashunoslik va metodologik asoslarni shakllantirganini, biroq ayrim nazariy xulosalar zamonaviy fan yutuqlari asosida qayta ko'rib chiqilishi zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar

Markaziy Osiyo, tosh davri, paleolit, mezolit, neolit, tarixshunoslik, sovet arxeologiyasi, arxeologik ekspeditsiyalar, davrlashtirish, metodologiya.

DOI: 10.5281/zenodo.21835551

KIRISH

Markaziy Osiyoning tosh davri tarixiga oid tadqiqotlar tahlili XX asr ikkinchi yarmidan boshlab amalga oshirib kelinmoqda. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda va xoririjiy mamlakatlarda ham ushbu masalaga doir e'tiborga molik ilmiy tadqiqotlar yaratilgan. Shu nuqtai nazardan ushbu masalaga oid tarixshunoslik tadqiqotlarini 3 ta guruhga bo'lib tahlil qilish mumkin: 1) Sovet davrida amalga oshirilgan tadqiqotlar; 2) Mustaqillik yillarida O'zbekistonda amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar; 3) Rossiya Federatsiyasida amalga oshirilgan tarixshunoslik tahlillari.

Sovet davrida amalga oshirilgan tadqiqotlar. XX asrning 60-yillariga kelganda salkam bir asrlik ilmiy tadqiqotlar bazasi to'planishi natijasida Markaziy Osiyoning tosh davri tarixiga oida tadqiqotlarni tahlil qilish zarurati yuzaga keldi. Ushbu qadam kelajakdagi ilmiy izlanishlar uchun ham yo'l ko'rsatkich bo'lganligi o'tgan davr mobaynida o'z isbotini topdi.

V.A.Shishkinning "Сорок лет советской археологии в Узбекистане (1924–1964)" nomli maqolasida 1924–1964-yillardagi O'zbekiston hududidagi olib borilgan arxeologik qazishmalar, shu jumladan, tosh davri tarixiga oid manzilgohlarida olib borilgan arxeologiya yutuqlari va ilmiy tadqiqotlarini sovet davri nuqtai nazaridan ko'rib chiqadi. Maqola marksistik-lenincha tarixiy materializm pozitsiyasidan yozilgan bo'lib, sovet arx-

eologlari tomonidan ochilgan yangi yodgorliklarni va ularni insoniyatning kelib chiqishi, ijtimoiy taraqqiyot qonunlari va O‘rta Osiyo xalqlarning qadimiy madaniyati bilan bog‘laydi [1].

Maqola sovet arxeologiyasining asosiy yutug‘ini ta’kidlaydi: 1920–1960-yillarda O‘rta Osiyoda (ayniqsa O‘zbekistonda) tosh davri yodgorliklari deyarli “oq dog‘” bo‘lgan hududni to‘ldirish. Oldin “islomgacha” deb umumlashtirilgan qadimiy davr endi aniq bosqichlarga (paleolit → neolit → eneolit → bronza) bo‘lingan [2].

Teshik-tosh (neandertal bola skeleti) topilmasi global ahamiyatga ega deb baholanadi – bu insoniyatning kelib chiqishi haqidagi materialistik nazariyani (Darvin → Engels → sovet paleoantropologiyasi) tasdiqlaydi va burjua “irqchilik” yoki “abadiy tip” nazariyalariga qarshi ishlatiladi.

Matn sovet davrining tipik uslubida yozilgan: har bir kashfiyot “marksistik qonunlarning tasdiqlanishi”, “burjua ilmining zaifligi” va “O‘rta Osiyo xalqlarining yuqori madaniyati” g‘oyalari bilan bog‘lanadi. Bu ilmiy faktlarni siyosiy-rasmiy talqin bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, faktlar (Teshik-tosh, Omonqo‘ton, Kaltaminor, Chust va boshqalar) hozirgi zamon arxeologiyasida ham asosiy ahamiyatga ega va keyingi tadqiqotlar (masalan, Okladnikov va G‘ulomov ishlarining davomi) uchun mustahkam asos yaratgan.

1966-yilda Mavlon Jo‘raqulov tomonidan “История изучения каменного века Средней Азии” (“O‘rta Osiyo tosh davrining o‘rganilish tarixi”) mavzusida tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya himoya qilindi [3]. Mazkur tadqiqot O‘rta Osiyo arxeologiyasi tarixshunosligida tosh davrini o‘rganish masalalariga bag‘ishlangan dastlabki maxsus ilmiy ishlardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Dissertatsiyada XIX asrning ikkinchi yarmidan XX asrning 60-yillarigacha bo‘lgan davrda O‘rta Osiyo hududida olib borilgan arxeologik izlanishlar, ilmiy ekspeditsiyalar va ularning natijalari tarixshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilingan.

Tadqiqotda Rossiya imperiyasi davrida O‘rta Osiyo tosh davri yodgorliklarini aniqlash va o‘rganish borasida amalga oshirilgan dastlabki ilmiy izlanishlar ko‘rib chiqilgan. Muallif tomonidan harbiy topograflar, sayyohlar, geograflar va sharqshunos olimlarning kuzatuvlari hamda ularning mintaqa qadimgi tarixini o‘rganishga qo‘shgan hissasi yoritilgan. Shuningdek, Turkiston havaskor arxeologlar to‘garagi faoliyati, uning a’zolari tomonidan to‘plangan arxeologik materiallar va ularning ilmiy ahamiyati baholangan.

Dissertatsiyaning asosiy qismi Sovet davrida O‘rta Osiyo paleoliti, mezoliti va neoliti bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarning tahliliga bag‘ishlangan. Unda sovet arxeologiya maktabi vakillari tomonidan olib borilgan dala tadqiqotlari, yangi yodgorliklarning kashf etilishi, stratigrafik kuzatuvlar hamda tosh qurollarni tipologik tasniflash borasidagi ilmiy yutuqlar atroflicha ko‘rib chiqilgan. Muallif O‘rta Osiyo tosh davrini o‘rganishning asosiy bosqichlarini ajratib ko‘rsatib, har bir davr uchun xos bo‘lgan metodologik yondashuvlar va ilmiy konsepsiyalarni tahlil qilgan [4].

M.Jo‘raqulov o‘z tadqiqotida nafaqat alohida arxeologik yodgorliklar va ekspeditsiyalar faoliyatini tavsiflash bilan cheklanib qolmay, balki tosh davri tarixshunosligining shakllanishi, manbashunoslik bazasining kengayishi va ilmiy qarashlarning evolyutsiyasini ham yoritgan. Shu jihatdan mazkur dissertatsiya O‘rta Osiyo arxeologiyasi tarixini o‘rganishda muhim tarixshunoslik tadqiqoti bo‘lib, mintaqada tosh davrini o‘rganishning ilmiy asoslari, erishilgan natijalari va istiqboldagi vazifalarini baholash imkonini bergan.

Umuman olganda, Mavlon Jo‘raqulovning ushbu dissertatsiyasi O‘rta Osiyo tosh davri arxeologiyasining shakllanish va rivojlanish bosqichlarini tizimli ravishda tahlil qilgan ilk maxsus tarixshunoslik tadqiqotlaridan biri bo‘lib, keyingi davr arxeologik va tarixshunoslik izlanishlari uchun muhim ilmiy-metodologik asos vazifasini o‘tagan.

Markaziy Osiyo tosh davri tarixshunosligida 1960-yillardan boshlab arxeologik yodgorliklarni o‘rganishda yangi metodologik yondashuvlar shakllana boshladi. Ana shunday tadqiqotlardan biri G.F.Korobkova va T.M.Mirsaatov tomonidan tayyorlangan “Qadimgi chaqmoqtosh qazib olish usullarini eksperiment metodi asosida o‘rganish (Uchtut ustaxonasi materiallari asosida)” nomli maqola hisoblanadi [5]. Mazkur tadqiqot O‘zbekiston hududidagi neolit davriga oid Uchtut chaqmoqtosh ustaxonasi materiallarini eksperimental arxeologiya usuli orqali tahlil qilishga bag‘ishlangan.

Mualliflar tadqiqot davomida Uchtut yodgorligidan topilgan tosh qurollar, chaqmoqtosh bo‘laklari,

qazib olish vositalari hamda ishlab chiqarish chiqindilarini qayta tiklash tajribalari asosida qadimgi insonlarning xomashyo qazib olish va unga dastlabki ishlov berish texnologiyalarini aniqlashga harakat qilganlar. Tadqiqotda arxeologik topilmalarni faqat tavsiflash bilan cheklanilmay, balki ularni amaliy tajribalar orqali tekshirish usuli qo‘llanganligi bilan ajralib turadi. Bu esa tosh davri xo‘jaligi va ishlab chiqarish faoliyatini yanada aniqroq rekonstruksiya qilish imkonini bergan.

Maqolada Uchtut ustaxonasi Markaziy Osiyodagi eng yirik chaqmoqtosh qazib olish markazlaridan biri sifatida baholanadi. Tadqiqotchilar yodgorlikda aniqlangan shaxtalar, quduqlar va qazish inshootlari asosida neolit davrida chaqmoqtoshni qazib olish, uni dastlabki qayta ishlash va tayyor o‘zaklar (nukleuslar) ishlab chiqarish jarayonlarini tahlil qilganlar. Shuningdek, Karatau hududidagi xomashyo manbalari va ularning ibtidoiy jamoalar xo‘jalik hayotidagi o‘rni yoritilgan [6].

Tarixshunoslik nuqtayi nazaridan ushbu maqolaning ahamiyati shundaki, unda tosh davri yodgorliklarini o‘rganishda eksperimental arxeologiya metodining ilmiy imkoniyatlari namoyish etilgan. Mualliflar M.R.Qosimov tomonidan olib borilgan Uchtut va Karatau yodgorliklari tadqiqotlari natijalarini yangi metodlar asosida boyitib, Markaziy Osiyoda toshga ishlov berish texnologiyasi, xomashyo qazib olish usullari va ishlab chiqarish jarayonlarini tiklashga muhim hissa qo‘shganlar. Natijada mazkur tadqiqot Markaziy Osiyo tosh davri tarixshunosligida texnologik va ishlab chiqarish jarayonlarini rekonstruksiya qilishga qaratilgan ilk maxsus izlanishlardan biri sifatida e’tirof etiladi.

Markaziy Osiyo tosh davri tarixshunosligini o‘rganishda A.R.Muhamedjanovning 1967-yilda e’lon qilingan “O‘zbekistonda sovet hokimiyati yillarida arxeologiya fanining rivojlanishi” nomli maqolasi muhim tarixshunoslik ahamiyatiga ega. Muallif mazkur tadqiqotda O‘zbekistonda arxeologiya fanining shakllanishi va taraqqiyot bosqichlarini tahlil qilar ekan, tosh davri yodgorliklarini o‘rganish tarixiga ham alohida e’tibor qaratadi [7].

Muhamedjanovning ta’kidlashicha, Rossiya imperiyasi davrida O‘rta Osiyo arxeologiyasining asosiy e’tibori me’moriy obidalar, qadimiy shahar xarobalari va yozma manbalar bilan bog‘liq yodgorliklarga qaratilgan bo‘lib, ibtidoiy jamiyat va tosh davri masalalari deyarli tadqiq etilmagan. Muallif bu holatni o‘sha davr arxeologiyasida ilmiy metodologiyaning yetarli darajada shakllanmaganligi hamda tarixiy jarayonlarning idealistik talqinlari bilan izohlaydi. Natijada tosh davri, bronza va ilk temir davri yodgorliklari uzoq vaqt davomida arxeologik tadqiqotlarning chekka yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolgan.

Maqolada sovet davri arxeologiyasining shakllanishi bilan O‘rta Osiyoning eng qadimgi tarixini o‘rganishda tub burilish yuz bergani ko‘rsatib beriladi. Ayniqsa, 1930-yillardan boshlab ilmiy muassasalarning tashkil etilishi, malakali arxeolog kadrlarning yetishib chiqishi hamda keng ko‘lamli ekspeditsiyalarning yo‘lga qo‘yilishi natijasida tosh davri yodgorliklarini tizimli ravishda o‘rganish imkoniyati paydo bo‘lgan. Muallif Zarafshon, Xorazm, Termiz va Toshkent vohalarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida O‘rta Osiyoning eng qadimgi madaniyatlariga oid yangi ilmiy ma’lumotlar to‘planganligini qayd etadi [8].

A.Muhamedjanov tarixshunoslik nuqtayi nazaridan arxeologik tadqiqotlar rivojlanishini bir necha bosqichlarga ajratadi. Unga ko‘ra, urushdan keyingi davrda tashkil etilgan yirik kompleks ekspeditsiyalar O‘rta Osiyo tarixini paleolit davridan boshlab uzluksiz o‘rganish imkonini yaratgan. Xususan, Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi, yirik irrigatsiya inshootlari qurilishi bilan bog‘liq qutqaruv arxeologiyasi ishlari hamda respublikaning turli hududlarida olib borilgan dala tadqiqotlari tosh davri tarixshunosligining manbashunoslik bazasini sezilarli darajada kengaytirgan.

Umuman olganda, A.R.Muhamedjanovning mazkur maqolasi Markaziy Osiyo tosh davri tarixshunosligining shakllanish va rivojlanish bosqichlarini yorituvchi muhim umumlashtiruvchi tadqiqot hisoblanadi. Unda tosh davrini o‘rganishning dastlabki bosqichlari, metodologik yondashuvlarning evolyutsiyasi, ilmiy ekspeditsiyalar faoliyati va sovet arxeologiyasining ushbu yo‘nalishdagi yutuqlari tahlil qilinib, keyingi tarixshunoslik tadqiqotlari uchun muhim nazariy asos yaratilgan.

Sovet davrida amalga oshirilgan arxeologik tadqiqotlar tarixshunosligi bilan arxeologog olim V.A.Ranovning ko‘plab tadqiqotlari mavjud [9]. V.A.Ranovning “O‘rta Osiyo tosh davrining yigirma yil davomida (1945–1965) o‘rganilishi” nomli maqolasi tadqiq etilayotgan masala uchun muhim o‘rin tutadi [10]. Muallif mazkur tadqiqotda Ikkinchi jahon urushidan keyingi yigirma yil mobaynida O‘rta Osiyo hududida olib

borilgan arxeologik izlanishlarni umumlashtirib, tosh davrini o‘rganish sohasida erishilgan ilmiy natijalarni tarixshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilgan.

V.A.Ranovning ta’kidlashicha, 1945–1965-yillar Markaziy Osiyo paleolitshunosligi tarixida yangi bosqichni boshlab bergan davr hisoblanadi. Aynan shu yillarda mintaqaning deyarli barcha hududlarida keng ko‘lamli arxeologik ekspeditsiyalar tashkil etilib, ilgari noma’lum bo‘lgan ko‘plab paleolit, mezolit va neolit davri yodgorliklari aniqlangan. Muallif ayniqsa Tojikiston, O‘zbekiston, Turkmaniston, Qirg‘iziston va Janubiy Qozog‘iston hududlarida olib borilgan tadqiqotlar natijasida O‘rta Osiyoning ibtidoiy tarixiga oid manbaviy baza sezilarli darajada kengayganligini qayd etadi [11].

Maqolada paleolit davrini o‘rganish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Muallif Selungur, Qoratov, Omonqo‘ton, Teshiktosh, Obirahmat va boshqa yodgorliklarda olib borilgan tadqiqotlar natijasida O‘rta Osiyoda qadimgi odamlarning yashash tarixi, mehnat qurollari evolyutsiyasi hamda madaniy taraqqiyot bosqichlari haqidagi tasavvurlar ancha boyiganligini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, mezolit va neolit davrlariga oid yangi yodgorliklarning aniqlanishi ibtidoiy jamoalarning xo‘jalik faoliyati, ovchilik, termachilik va dastlabki ishlab chiqaruvchi xo‘jalik shakllarini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etgan [12].

V.A.Ranov o‘z tadqiqotida alohida olimlar va ilmiy ekspeditsiyalarning faoliyatini ham tahlil qiladi. Xususan, A.P.Okladnikov, Ya.G‘.G‘ulomov, M.R.Qosimov, A.A.Formozov, G.F.Korobkova va boshqa tadqiqotchilarning ishlari O‘rta Osiyo tosh davri tarixshunosligining rivojlanishida muhim bosqich sifatida baholanadi. Muallif ushbu davrda stratigrafik kuzatuvlar, tipologik tahlil, geologik va paleontologik ma’lumotlarni arxeologik tadqiqotlarga jalb etish kabi yangi metodlarning qo‘llanilishi natijasida ilmiy xulosalarning ishonchlilik darajasi ortganligini alohida ta’kidlaydi [13].

A.A.Asqarovning 1974-yilda chop etilgan “O‘zbekiston arxeologlari tosh davrini o‘rganishdagi muvaffaqiyatlari” maqolasi Markaziy Osiyoda, xususan O‘zbekiston hududida tosh davri (paleolit, mezolit va neolit) tadqiqotlarining 1930–1970-yillardagi rivojini umumlashtiruvchi muhim tarixshunoslik manbasi hisoblanadi. Maqola sovet arxeologiyasining bu mintaqadagi yutuqlarini ko‘rsatish bilan birga, oldingi davr stereotiplarini rad etishga qaratilgan [14]. 1930-yillarga qadar Markaziy Osiyo “tarixgacha” davr yodgorliklariga kambag‘al deb hisoblangan. A.Asqarov bu fikrni to‘g‘ridan-to‘g‘ri rad etadi va 1938-yilda A.P.Okladnikov tomonidan ochilgan Teshik-Tosh g‘oridagi mustye davri yodgorligi va neandertal bola qoldiqlari topilishini burilish nuqtasi sifatida belgilaydi. Bu kashfiyot nafaqat O‘zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo paleolitini o‘rganishga asos soldi. Maqola mustye davrining ko‘plab yodgorliklarini (Amir Temir, Omonqo‘tan, Takaliksoy, Xo‘jamazgil, Qo‘tirbuloq, Qapchig‘ay, Obirahmat, Ko‘lbuloq va boshqalar) sanab o‘tadi.

Obirahmat va Ko‘lbuloq kabi ko‘p qatlamli yodgorliklar ayniqsa muhim, chunki ular o‘tish davrlarini aniqlashga yordam beradi. Yuqori paleolit uchun Samarkand yodgorligi (D.N.Lev tadqiqotlari) markaziy o‘rin tutadi. Mezolit bo‘yicha tadqiqotlar ancha zaifroq bo‘lganini AAsqarov maqolasida ochiq tan oladi. Faqat Qo‘shilish, Obishir va Machay (inson qoldiqlari topilgan) kabi uchta asosiy yodgorlik haqida ma’lumot beriladi. Neolitda esa katta muvaffaqiyat – Kaltaminor madaniyati (S.P.Tolstov nomi bilan bog‘liq, 300 dan ortiq yodgorlik). Uchtut shaxtalari va ustaxonalarining ochilishi (T.M.Mirsoatov va M.R.Kasimov) neolit texnologiyasi hisoblangan mikrolitlar, shaxta konchiligini chuqur o‘rganishga imkon berdi.

Umuman olganda ushbu maqola sovet davri Markaziy Osiyo arxeologiyasining rivojini aks ettirgan klassik namunasi hisoblanib, markazlashtirilgan va optimistik ruhda yozilgan. Asosiy e’tibor O‘zbekiston hududiga qaratilgan bo‘lib, uni butun Markaziy Osiyo uchun namunaviy mintaqa sifatida ko‘rsatadi, Yetakchi olimlar A.Okladnikov, S.Tolstov, Y.G‘ulomov, M.Qosimov, D.Lev, O‘.Islomov va boshqalarning fandagi hissasini alohida ta’kidlaydi. Shu bilan birga, muallif tadqiqotlardagi nomutanosibliklarni (masalan, mezolitning zaif o‘rganilganligi, ba’zi yodgorliklarning xronologik noaniqligi) tan oladi [15].

Xulosa qilib aytganda, A.Asqarovning ushbu maqolasi 1970-yillar boshidagi Markaziy Osiyo tosh davri tarixshunosligining “hisobot”i sifatida qimmatli. U bir tomondan, sovet arxeologiyasining katta yutuqlarini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan, keyingi tadqiqotlar uchun “yo‘l xaritasi”ni taqdim etadi. Bugungi kun nuqtai nazaridan esa u XX asr o‘rtalaridagi ilmiy bilimlar darajasi va o‘sha davr ilmiy qarashlarini yaqqol ifodalaydi.

Sovet davrining so‘ngi pallasida M.Qosimov tomonidan e’lon qilingan maqola ham tadqiq etilayotgan masala uchun muhim ahamiyatga ega. M.R.Qosimovning 1990-yilda “Обшественне науки в Узбекистане”

jurnalida chop etilgan “O‘rta Osiyo va Janubiy Qozog‘iston hududida paleolitni o‘rganish muammolari” maqolasi XX asrning 70-80-yillaridagi Markaziy Osiyo paleolitshunosligining muhim umumlashtiruvchi va tanqidiy tahlili hisoblanadi. Muallif 20 yillik o‘z tadqiqotlari (xususan, Ko‘lbuloq ko‘p qatlamli yodgorligi) hamda mintaqadagi boshqa olimlarning materiallariga asoslanib, paleolit tadqiqotlaridagi yutuqlar va hal etilmagan muammolarni ochiq ko‘rsatadi.

M.R.Qosimov O‘zbekiston, Tojikiston, Qirg‘iziston, Turkmaniston, Qozog‘iston janubida paleolit yodgorliklari keng tarqalganini tasdiqlaydi va uni “insoniyatning eng qadimiy o‘choqlaridan biri” deb baholaydi. Biroq tadqiqotlar juda notekis ekanligini ta’kidlaydi:

1. Eng qadimgi (so‘nggi Olduvay) davrga oid faqat 2 ta yodgorlik (Ko‘ldara va Aristondi).
2. Ashel davri yodgorliklari asosan Qozog‘iston janubida (Qoratov) yaxshiroq o‘rganilgan, ammo aksariyat hollarda yodgorliklar buzilgan holatda.
3. Mustye davri eng yaxshi o‘rganilgan (O‘zbekistonda Teshiktosh, Omonqo‘ton, Obirahmat, Ko‘lbuloq va boshqalar).
4. Yuqori paleolit yodgorliklari juda kam (Samarkand, Ko‘lbuloq, Shug‘non va boshqalar).

Muallif arxeologiya, geologiya, paleontologiya, paleogeografiya sohalarini birlashtirgan kompleks tadqiqotlarni kuchaytirish zarurligini ta’kidlaydi. Faqat shu yo‘l bilan mintaqa paleolitining o‘ziga xos xususiyatlarini, uning Yevrosiyo paleoliti bilan bog‘liqligini to‘liq ochish mumkin, deb hisoblaydi. A.Asqarovning 1974-yilgi maqolasidan farqli o‘laroq, M.Qosimovning 1990-yilgi maqolasi ko‘proq tanqidiy va muammoli ruhda yozilgan. U sovet arxeologiyasining yutuqlarini tan olsa-da, tadqiqotlardagi bo‘shliqlar va nomutanosibliklarni ochiq ko‘rsatadi. Bu XX asr 80-yillari oxiridagi ilmiy dunyoqarashning erkinlashuvini aks ettiradi. Maqola Markaziy Osiyo paleolitshunosligida Ko‘lbuloq makonining markaziy o‘rnini mustahkamlaydi va keyingi tadqiqotlar uchun aniq “muammolar ro‘yxati”ni beradi. U 1970-yillarda A.Asqarov bergan ijobiy ruhda yozilgan “hisobot”dan keyin keladigan navbatdagi bosqich hisoblangan chuqur ilmiy tahlil va yangi uslubiy talablar davrini ifodalaydi.

L.B.Vishnyatskiyning “O‘rta Osiyo paleolitini o‘rganish (materiallar, metodlar, kontseptsiyalar)” maqolasi sovet davrining oxirida yaratilgan tanqidiy tarixshunoslik tadqiqotlaridan biri hisoblanadi [16]. Muallif 1930-yillardan 1980-yillarga qadar bo‘lgan tadqiqotlarning materiallarini, metodlarini va asosiy konseptsiyalarini tizimli ravishda tahlil qiladi. A.Asqarov va M.Qosimov maqolalaridagi umumlashtiruvchi va muammoli yondashuvlardan farqli o‘laroq, L.Vishnyatskiy metodologik va kontseptual tanqidga urg‘u beradi, bu esa uning tadqiqotlarini mintaqa paleolitshunosligining keyingi bosqichida muhim manba qiladi.

L.Vishnyatskiy mintaqadagi paleolit tadqiqotlarini uch asosiy nazariya atrofida tahlil qiladi:

1. A.P.Okladnikov – V.A.Ranov konseptsiyasi (ikki hudud nazariyasi) Markaziy Osiyoni ikki katta madaniy zonaga bo‘lish: g‘arbiy (Old Osiyo ta’siri, kesish texnikasi) va sharqiy (Sharqiy Osiyo ta’siri, chopper texnikasi). Bu konseptsiya L.Moviusning mashhur “chopper-chopping tool” va “handaxe” zonalar nazariyasiga asoslanadi [17]. L.Vishnyatskiy uning kelib chiqishini (1950-60-yillar), rivojlanishini va H.Movius ta’sirini chuqur ko‘rsatadi. Kontseptsiya 1960-yillarda hukmron bo‘lgan bo‘lsa-da, keyinchalik 1970-80-yillarda tanqid ostiga olindi [18].
2. V.A.Ranovning mustye davri uchun fatsiyalar konseptsiyasi. Mustye davrini levallua-mustye, levallua, mustye, mustye-soan va boshqa fatsiyalarga bo‘lish. L.Vishnyatskiy bu sxemaning metodologik zaifligini keskin tanqid qiladi. V.Ranovning asosiy mezonlari (levallua texnikasining darajasi) statistik jihatdan to‘liq asoslanmagan, ko‘pincha tavsifiy va takrorlanuvchi xarakterga ega. Terminologik chalkashlik (fatsiya, variant, madaniy guruh) va sxemaning uzoq muddat barqarorligi muammoli deb baholanadi [19].
3. R.X.Suleymanov konsepsiyasi (Obirahmat madaniyati). Mustye davrini ikki yo‘nalishga “tishli” va “oddiy”ga bo‘lish va Obirahmatni asosiy madaniyat sifatida ajratish. Muallif matematik-statistik usullarni (Robinson va Pirson nazariyalari) qo‘llagan bo‘lsa-da, L.Vishnyatskiy ularning qo‘llanilishini ilmiy jihatdan yetarli emas deb baholaydi. Xronologik va madaniy yaqinlikni oldindan taxmin qilish, natijalarni “evolyutsion jarayon” bilan izohlash tanqid ostiga olinadi [20].

Z.A.Abramova va M.R.Qosimov kontsepsiyalari yuqoridagilarga yaqin sifatida ko‘rib chiqiladi.

L.Vishnyatskiy asosiy muammo sifatida **“chet eldan import qilingan”,** jumladan, L.Movius hamda F.Bord **sxemalarini** to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llashni ko‘rsatadi. Bu yondashuv mintaqa materialining o‘ziga xosligini yetarli hisobga olmaydi va “korset effekti”ga olib keladi. U yangi, mintaqa materialiga mos maxsus termin va metodlar zarurligini ta’kidlaydi. Tadqiqotlarning kuchli tomonlari (materiallarning ko‘payishi, kompleks yondashuv) bilan birga zaif tomonlari (metodik asosning yetishmasligi, nashr etilmagan kolleksiyalar) ochiq tanqid qilinadi.

Maqola sovet paleolitshunosligidagi o‘tish davrini aks ettiradi. Masalan, XX asrning 70-yillaridagi A.Asqarovning paleolitshunoslik tadqiqotlariga ijobiy umumlashtirishlari, 80-yillardagi metodologiya ishlab chiqishga harakat va tanqidiy qayta ko‘rib chiqishga oid jarayon tahlil qilinadi. L.Vishnyatskiy tadqiqotlarning tajriba, kuzatish va dalillarni yig‘ishga asoslangan bosqichdan nazariy-metodologik bosqichga o‘tish zarurligini ta’kidlaydi [21].

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. Шишкин В. А. Сорок лет советской археологии в Узбекистане (1924—1964). // ИМКУ. 1966. – С. 5–18.
2. Шишкин В. А. Сорок лет советской археологии в Узбекистане (1924—1964). // ИМКУ. 1966. – С. 5–18.
3. Джуракулов М. История изучения каменного века Средней Азии. //Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Самарканд, 1966.
4. Джуракулов М. История изучения каменного века Средней Азии. //Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Самарканд, 1966. – С. 12–21.
5. Коробкова Г. Ф., Мирсаатов Т. М. Изучение способов добычи кремня методом эксперимента (по материалам Учтутской мастерской) // ИМКУ. – Ташкент: Фан. 1969. – № 8. – С. 32–37.
6. Коробкова Г. Ф., Мирсаатов Т. М. Изучение способов добычи кремня методом эксперимента (по материалам Учтутской мастерской) // ИМКУ. – Ташкент: Фан. 1969. – № 8. – С. 32–37.
7. Мухамеджанов А.Р. Развитие археологической науки в Узбекистане в годы Советской власти. // СА., 1967., № 4. – С. 93–103.
8. Мухамеджанов А.Р. Развитие археологической науки в Узбекистане в годы Советской власти. // СА., 1967., № 4. – С. 93–103.
9. Ранов В.А. Изучение каменного века Средней Азии за двадцать лет (1945–1965) // Материальная культура Таджикистана. Выпуск 1. – Душанбе: Дониш. 1968. – С. 5 – 45, Ранов В.А. Главные вопросы изучения палеолита Средней Азии // Основные проблемы изучения четвертичного периода. М., 1965., Ранов В.А. К изучению мустьерской культуры в Средней Азии // МИА, 173. М., 1971. Ранов В.А. Перспективы изучения каменного века в горной части бассейна р. Зарафшан // МКТ. Вып. 3, Душанбе, 1978.
10. Ранов В.А. Изучение каменного века Средней Азии за двадцать лет (1945–1965) // Материальная культура Таджикистана. Выпуск 1. – Душанбе: Дониш. 1968. – С. 5 – 45.
11. Ранов В.А. Изучение каменного века Средней Азии за двадцать лет (1945–1965) // Материальная культура Таджикистана. Выпуск 1. – Душанбе: Дониш. 1968. – С. 5 – 45.
12. Ранов В.А. Изучение каменного века Средней Азии за двадцать лет (1945–1965) // Материальная культура Таджикистана. Выпуск 1. – Душанбе: Дониш. 1968. – С. 5 – 45.
13. Ранов В.А. Изучение каменного века Средней Азии за двадцать лет (1945–1965) // Материальная культура Таджикистана. Выпуск 1. – Душанбе: Дониш. 1968. – С. 5 – 45.
14. Аскаров А.А. Успехи археологов Узбекистана в изучении каменного века. // ИМКУ., Т., 1974. – С. 9–14.
15. Аскаров А.А. Успехи археологов Узбекистана в изучении каменного века. // ИМКУ., Т., 1974. – С. 9–14.
16. Вишняцкий Л.Б. Изучение палеолита Средней Азии // СА №1. – Москва, 1989. – С. 5–15.

17. Mouis H. Paleolithic and Mesolithic Sites in Soviet Central Asia // Proceedings of the American Philosophical Society. 1953. T. 97. № 4. – P. 383-421.
18. Вишняцкий Л.Б. Изучение палеолита Средней Азии // СА №1. – Москва, 1989. – С. 5–15.
19. Вишняцкий Л.Б. Изучение палеолита Средней Азии // СА №1. – Москва, 1989. – С. 5–15.
20. Вишняцкий Л.Б. Изучение палеолита Средней Азии // СА №1. – Москва, 1989. – С. 5–15.
21. Вишняцкий Л.Б. Изучение палеолита Средней Азии // СА №1. – Москва, 1989. – С. 5–15.